



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTINING
PAXTACHI TUMANIDAGI
XALQ QABULXONASI**

140600, Zioyuvuddin sh., M.Ulug‘bek ko‘chasi,204
Tel: (366) 404-10-00

2026-yil _____ № _____ XQ-26-son

*Xalq deputatlari Paxtachi
tuman Kengashi raisiga*

A x b o r o t n o m a

***“Xalq deputatlari Kengashining
navbatdagi sessiyasida ko‘rib chiqish
To‘g‘risida”***

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonasiga **joriy yilning birinchi choragida** Paxtachi tumani aholisidan jami **1712 ta** murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **2196 (484) ta**ga, ya‘ni **28%** kamaygan.

Jami Virtual va Xalq qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlarning **1348 tasi (78,7%) qanoatlantirilgan** (shundan, **694 tasi (40.5%) ijobiy yechimini topgan, 654 tasi huquqiy maslahat berish orqali hal qilinganlar**), **21 tasi** bo‘yicha **tushuntirish** berilgan, **30 tasi rad etilgan, 6 tasi** ko‘rmasdan qoldirilgan, **6 tasi** tugatilgan, **11 tasi** tyegishlilik bo‘yicha yuborilgan, **2 tasi** uzoq muddatli nazoratga olingan va **288 tasi ko‘rib chiqish jarayonidagi** murajaatlarni tashkil etadi.

Murojaatlarda, asosan, ijtimoiy himoya tizimi hamda uy-joy ta‘minotiga oid masalalar masalalar (**348 ta**), nafaqa tayinlash, moddiy yordam ajratish va pensiyaga oid masalalar (**247 ta**), myehnatga haq to‘lash, bandlik, mehnat nizolari, hokim yordamchilari faoliyati va migratsiya masalalari (**180 ta**), aliment, qarz undirish va ijro ishi yuritishga oid boshqa masalalarga oid masalalar (**155 ta**), xizmatchilar faoliyati va xatti-harakatlari bilan bog‘liq masalalar (**122 ta**), Sodir etilgan huquqbuzarlik va firibgarlik hamda surishtiruv-tergov harakatlariga oid masalalar (**124 ta**), elektr energiya ta‘minoti (**131 ta**), davolash va tibbiy xizmat ko‘rsatish (**95 ta**) va gaz ta‘minoti (**62 ta**) bilan bog‘liq yo‘nalishlar **eng ko‘p ko‘tarilgan**.

Jamoaviy murojaatlar - o‘tgan davr davomida tuman aholisidan jami **18 ta jamoaviy xarakterdagi** murojaatlar tushgan bo‘lib, shundan **4 tasi** ijobiy hal etilgan (**22.2%**), **7 tasi** bo‘yicha **huquqiy tushuntirish** berilgan va **7 tasi** o‘rganish jarayonida.

Bunday murojaatlarda, asosan, ish haqi to‘lash bilan bog‘liq muammolar, Yo‘l infratuzilmasiga oid, huquqbuzarliklar haqida xabarlar va ular bo‘yicha ish yuritishga oid va elektr energiyasi ta‘minoti muammolar bilan bog‘liq masalalar **ko‘tarilgan**.

Davlat xizmatchilari xatti-harakatlari ustidan shikoyatlar – joriy yilda jami **122 ta** kelib tushgan bo‘lib, ayniqsa, majburiy ijro byurosi, profilaktika inspektori, ichki ishlar organi (tergov, profilaktika, YXX, PPX, JIE va pasport xizmatidan tashqari), sog‘liqni saqlash, mahalla raisi (xodimlari), bank, elektr ta‘minoti xodimi xatti-harakatlari, ijtimoiy xodim xatti-harakatlari, hokim yordamchisining xatti-harakatlari, xatti-harakatlari yuzasidan **shikoyatlar tushgan**.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda muddati buzilganlar bo‘yicha - bugungi kunda Prezident Virtual va Xalq qabulxonalarini orqali kelib tushgan tuman tashkilotlari ish yurituvdagi **7 ta** murojaatlarni ko‘rib chiqishning qonunda belgilangan **muddati buzib**, javoblari tizimga kiritilganligi aniqlandi.

Rahbarlar qabulini tashkil etish so‘rovlari bo‘yicha - mahalliy darajada hal etilishi mumkin bo‘lgan masalalar vaqtida ko‘rib chiqilmasligi oqibatida respublika darajasidagi **rahbarlar**, shu jumladan **Davlat rahbari qabulini** tashkil etish so‘rovlari kelib tushishda davom etmoqda.

Jumladan, **2026 yilning** 3 oy davomida qadar tuman aholisidan Prezident Virtual va Xalq qabulxonalariga rahbarlar shaxsiy qabulini so‘rab **12 ta**, shu jumladan, **Prezident qabuli so‘rovi** masalasida **2 ta** murojaat kelib tushgan.

Takroriy murojaatlar bo‘yicha - **Virtual va Xalq Qabulxonasi** orqali **181 ta takroriy murojaatlar** kelib tushgan (*o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2 taga kamaygan*).

Eng ko‘p takroriy murojaatlar Istiqlol MFYda (**14 ta**), Ko‘rpa MFYda (**11 tadan**), Jahonobod MFYda (**9 tadan**), Toma MFYda (**8 ta**), Tadbirkor MFYda (**8 ta**), Mirzo Salimiy MFYda (**7 ta**), Yangiobod MFYda (**7 ta**), Nayman MFYda (**7 ta**), Toshko‘prik MFYda (**7 ta**), Farovon Yo‘ldoshobod, Mojoy, Amir Temur, Bo‘ston, Mirzo Ulug‘bek, Mirkan MFYlarida (**6 ta**) tadan takroriy murojaatlar kelib tushgan.

3 oy davomida Kelib tushgan jami murojaatlar mahallalar kesimida:

Istiqlol MFYda (**76 ta**), Jahonobod MFYda (**59 tadan**), Mirzo Ulug‘bek MFYda (**59 ta**), Obodon MFYda (**58 ta**), Saroy MFYda (**46 ta**), Ko‘rpa MFYda (**43 ta**), Nayman MFYda (**41 ta**), Yangiobod MFYda (**41 ta**), Amir Temur MFYda (**40 ta**), murojaatlar mahalla fuqarolar yig‘ini aholisidan kelib tushgan.

Ommaviy sayyor qabullarni tashkillashtirish, qabullarda kelib tushgan murojaatlar asosida aholiga ko‘rsatilgan yordamlar to‘g‘risida.

2026 yil 03 yanvar kundan – 31 martga qadar tuman tashkilot rahbarlari tomonidan tumandagi mahallalarda 66 marotaba fuqarolar bilan ommaviy sayyor qabullar rejalashtirilgan bo‘lib, shundan 52 ta qabullar o‘tkazilgan. Ushbu qabullarda jami 153 nafar fuqarolardan murojaatlar kelib tushgan, shundan 135 ta murojaat ko‘rib chiqilgan bo‘lib, 52 tasi (33.9%) ijobiy hal etilgan, 53 ta murojaatlarga huquqiy ma‘lumot berish orqali hal etilgan, 6 ta murojaatlarga asosli tushuntirish berilgan va 42 tasi o‘rganish jarayonida.